

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARNING RIVOJLANISHIDA IRSIYAT, MUHIT VA INDIVIDUAL RIVOJLANISHNING O'RNI

Tenglashova Gulsanam

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Pedagogika va
tillarni o'qitish fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20307846>

Annotatsiya: Bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda tarbiyaning shaxs kamolotiga ta'siri haqida bayon etilgan. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib kelayotgan mamlakatimizning qay darajada yuksalishi, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim tarbiyasiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada bolaning rivojlanishida irsiyat, muhit va individual rivojlanishning o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: bola, irsiyat, muhit, individual rivojlanish, tashqi va ichki omillar, preformizm, bixeviorizm.

Inson bolasining rivojlanishi – bu muhim jarayon hisoblanadi. Ma'lumki, hayot davomida inson jismoniy va ruhiy jihatdan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlilik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi. Rivojlanish har qanday tirik organizmga, shu jumladan insonga ham xosdir. Rivojlanish tashqi va ichki omillar ta'siri ostida bo'ladi. Tashqi omillarga: Insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, bolalarda ma'lum shaxsiy jihatlarni shakllashtirishga qaratilgan maqsadli yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga: biologik omillar kiradi. Insonning rivojlanishiga ta'sir qiladigan omillar boshqariladigan va boshqarilmaydigan bo'ladi. Tarbiya, irsiyat va muhit bolaning rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Tarbiya jarayonining markaziy figurasi – bu bola va uning shaxsi hisoblanadi. Maktabgacha yoshda bola umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga muvofiq shaxsiy madaniyat asoslarining negizini egallaydi. Shaxsiy madaniyat tushunchasiga bolaning atrof borliqdagi to'rtta asosiy soha: tabiat, inson qo'llari bilan yaratilgan predmetlar, ijtimoiy hayot ko'rinishlari, shaxsiy hayot va faoliyati ko'rinishlari kiradi. Preformizm yo'nalishi – XVI asr falsafasida vujudga kelgan unga ko'ra bo'lajak shaxsga tegishli barcha xususiyatlarga bola ona qornidaligidayoq ega bo'ladi. Bixeviorizm yo'nalishi – bu oqimga pedagog va psixolog E.Torandayk asos soldi. Uning fikricha, ong va aqliy xususiyat ham nasldan naslga o'tadi. Biologik yo'nalish – bu yo'nalish tarafdorlari odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy – biologik omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi deb biladilar. Ularning fikricha, bola ona qornidalik vaqtida avlod-ajdodlardan o'tgan tug'ma xususiyatlargina rivojlanadi. Ular tarbiya va muhitning rolini cheklab qo'yishadi. Bolaning shakllanishi haqida g'arb faylasuflarining fikrlari. Biologik omilga qaraydigan bo'lsak bu irsiyat ya'ni bola o'zida paydo bo'ladigan qobiliyat, talant va boshqalar ota-onadan o'tadi bunda tarbiya va muhitning o'rni yo'q deya ta'rif beradi. Irsiyatni biologik tomondan o'rganib chiqadigan bo'lsak irsiyatning yaxshi tomoni bilan birga yomon tomoni ham bor. Irsiy kasalliklar bolaga ota-ona tomonidan o'tganda ular umrining oxirigacha saqlanib qolib ketishi mumkin bu ham bolaning rivojlanishi uchun to'siqdir. Bola shaxsi shakllanishida Islom dini va mutafakkirlarning fikrlari. Abu Hurayradan rivoyat qilinadi: “Nabiy “Har bir tug'ilgan bola faqat fitrat (sof tabiat) bilan tug'iladi. Bas, ota-onasi uni yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi”. Bu hadisi sharifdan irsiyat,

ya'ni biologik omil insonni shakllanishida asosiy o'rin tutadi degan fikrni ilgari suruvchi g'arb faylasuf va oqimlarining fikrlari asossiz ekanini va tarbiyaning muhimligini bilib olamiz.

Bolaning shakllanishida tarbiyaning ahamiyati. Ta'lim va tarbiya

O'rta Osiyolik mutafakkirlardan Forobiy va Abu Ali ibn Sino inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berganlar. Ibn Sino inson tashqi ko'rinishi uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishini aytib o'tgan. Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: Munosib inson bo'lish uchun insonda ikki xil imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. "Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir" deydi. Bolaning shakllanishida irsiyatning ahamiyati. Bola shaxsining rivojlanishida naslning ta'siri deganda ota-onadan bolaga meros bo'lib o'tadigan jismoniy xususiyatlari (tananing tuzilishi, sochining, ko'zining, terining rangi, bo'y-basti) shuningdek, tananing vertikal holdagi harakati, tafakkur va nutq rivojlanishi, mehnat qilish qobiliyati, tug'ma holatda o'tadigan qobiliyatlar va xususiyatlar tushuniladi. Islom dinida naslga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki nasl pokiza va ota-ona ma'rifatli, axloqli bo'lsa, bu xususiyatlar tug'ma holatda bolaga o'tadi va kelajakda komil insonga aylanadi. Agar ota-ona ma'rifatdan yiroq va axloqsiz bo'lsa, ulardan tug'iladigan farzand jamiyatga zarar keltirishi mumkin. Lekin ota-onadan tug'ma holatda o'tadigan qobiliyat va xususiyatlar o'z holicha rivojlana olmaydi, go'yo u "mudroq" holda bo'lib, uning uyg'onishi – rivojlanishi uchun qulay muhit va muttasil tarbiya kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi" degan fikrni ilgari suradi.

Bola shaxsining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy omillarga: xalq maorifining barcha bo'g'inlarini o'z ichiga oluvchi hamma o'quv-tarbiya muassalari, maktabdan tashqari, madaniy-ma'rifiy muassasalar, ijtimoiy tashkilotlar, axborotni tarqatish ommaviy vositalari va oila kiradi. Inson ijtimoiy muhitning mahsulidir. Bu muhit o'zgarishi bilan insonda ham o'zgarishlar yuz beradi. Inson shaxsida uning o'zi yashab turgan ijtimoiy muhit, ya'ni uning hayot sharoiti, qaysi sinfga mansubligi va hokozolar aks etadi. Ijtimoiy sharoit tubdan o'zgarsa, kishining ma'naviy qiyofasi ham butunlay o'zgaradi. Insonning ijtimoiylashishi, jamiyatga kirib kelishi oiladan boshlanadi. Bola shaxsining shakllanishida oilaning roli benihoya kattadir. Oila kishida dastlabki ijtimoiy va axloqiy tasavvurlarning, xarakterning shakllanishi uchun shart-sharoit yaratadi, hissiy sohaning rivojlanishiga ta'sir etadi. Bolaning oilada tutgan o'rni shu oilada nechta bola tarbiyalanishiga ham bog'liq. Bolani qurshab turgan kattalar uning hayotini saqlash sog'ligini mustahkamlash, uni noxush ta'sirlardan himoya qilish, teverak-atrofdagilari bilan munosabatda bo'lishi haqida g'amxo'rlik qiladilar. Tarbiya va ta'lim jarayonida katta yoshli odam bolaga tushunarli bo'lgan mazmunni tanlaydi, uning o'zlashtirishiga rahbarlik qiladi, bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi. Bunda bolaning ruhiy-fiziologik imkoniyatlari, ularning jo'shqinligi hisobga olinadi. Shu munosabat bilan tarbiya jarayonining o'zi doimiy bo'lib qolmaydi. U o'zgarib boradi: uning mazmuni boyiydi va murakkablashadi, shakllari o'zgaradi, o'sayotgan odam shaxsiga ta'sir ko'rsatish usullari tobora xilma-xil bo'lib boradi. Tarbiyaning o'zgarishi bolaning «eng yaqin rivojlanish zonalari» (L. S. Vigotskiy) bilan bog'liq bo'lib, ular ancha murakkab mazmundagi bilimlar, ko'nikmalar, faoliyat turlari va hokozolarni o'zlashtirishga ruhiy-fiziologik imkoniyatlar paydo bo'lishi bilan ajralib turadi (masalan, emaklashdan keyin yurish; bijir-bijirdan keyin faol nutqni o'zlashtirish; ancha miqdordagi tasavvurlarga ega bo'lgandan keyin tushunchalar darajasidagi bilimlarni o'zlashtirish; buyum asosidagi o'yin, mehnat faoliyatining vujudga kelishi va hokazo). Tarbiya va ta'lim «eng yaqin

rivojlanish zonasi»ga asoslanib, bugungi rivojlanish darajasidan oldinda boradi va bolaning rivojlanishini olg'a harakatlantiradi. Bola shaxsi uning butun hayoti davomida shakllanib boradi, ammo mustaqil mehnat faoliyatiga o'tgan vaqtda uning xarakteridagi asosiy xususiyatlar tarkib topgan bo'ladi. Mehnat jamoasida bir necha yil ishlagandan keyin u ishlab chiqarishda yosh kadrlarga murabbiylik qilishi, oilaviy turmush qurgandan keyin dunyoqarashida ham o'zgarishlar yuz beradi. Endi u to'plagan va idrok etilgan hayotiy tajribani yosh avlodga o'rgata boshlaydi. Demak, inson shaxs sifatida tabiat in'om etgan hamda tarbiya va ijtimoiy shakllanish sharoitlariga qarab muayyan tarzda rivojlangan iste'dodlar hamda uning butun hayoti davomida atrofdagi voqe'lik bilan o'zaro aloqasi vositasida hosil bo'lgan xususiyat va xislatlarning murakkab majmuidan iboratdir. Natijada har bir kishining shaxsiyatida unga muayyan jamiyatning vakiliga, uning ijtimoiy guruhiga xos ijtimoiillashtirilgan xususiyatlar hamda shaxs sifatida unga mansub bo'lgan o'ziga xos psixologik xususiyatlar bo'lishi mumkin. Bu xususiyatlar esa barcha tashqi omillarning shaxsga ta'siri natijasida yuzaga keladi va uning o'ziga xos xulq-atvoriga namoyon bo'ladi. Ijtimoiy muhit shaxsning shakllanishiga va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi Ayni vaqtda insonning ijtimoiy faolligi, faoliyati ta'sirida ijtimoiy muhit o'zgaradi bu o'zgarishlar jarayonida odamlarning o'zlari ham o'zgaradi. Ijtimoiy muhit bola shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblandi oilaviy sharoit ham aslida kichik ijtimoiy muhit hisoblandi lekin bunda bola to'lig'icha shakllanmaydi. Bola maktabga chiqilib haqiqiy ijtimoiy muhitga kiradi yon atrofdagilar bilan munosabati tubdan o'zgaradi va ijtimoiy muloqdotni o'rganadi. Oilasida ota - onasiga qilgan erkliklarni yo'qotib shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Ijtimoiy muhitda muomala madaniyati ham shakllanadi kimga, qaysi paytda qanday munosabatda bo'lish jarayonlarini o'rganadi. Bola tug'ilganida hayvoniy hislatlar bilan tug'iladi, huddi hayvon kabi bo'ladi ijtimoiy muhit bolani rivojlantiradi shaxs sifatida shakllantiradi. Hayvoniy hislatlardan yiroqlashib shaxs bo'lib shakllanadi. Ijtimoiy muhit bola rivojlanishi uchun muhim bo'lganligi sababli juda ko'p olimlar ijtimoiy muhitning bola rivojlanishiga ta'sirini o'rganib chiqadi Odam shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichlardan o'tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog'liq bo'ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriroq, bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo'shiladi. Ilk yosh bosqichida shakllanadigan rivojlanish odam uchun vaqtincha emas, doimiy ahamiyatga ega bo'ladi. Mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari aloqadorligi birinchi bosqichdan oxirigacha tarbiyaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning hal qiluvchi roli ko'zi ojiz va kar bolalar uchun mo'ljallangan jamoat muassasalarida ayniqsa, aniq namoyon bo'ladi. Bunday bolalar uchun ishlab chiqilgan tarbiya sistemasi ularni turmushga va mehnat faoliyatiga tayyorlashni ta'minlaydi.

Bolalar psixik rivojlanishi inson hayotidagi eng muhim va nozik

jarayonlardan biri hisoblanadi. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim davri — bolaning psixologik, intellektual va hissiy jihatdan rivojlanishi uchun asosiy poydevor bo'lib, aynan shudavrda bolada ijtimoiy munosabatlar, o'zini anglash, olamni tushunish va boshqalar bilan hamkorlik qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bu jarayonni to'g'ri yo'naltirish va hamkorlik qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bu jarayonni to'g'ri yo'naltirish va rivojlanishining har bir bosqichi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning har biriga individual yondashuv talab etiladi. Shuning uchun, har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlari, imkoniyatlari va qobiliyatlari inobatga olinishi lozim. Bir xil metodikalar yoki usullarni barcha bolalarga birdek tatbiq etishning samarasizligi, bola rivojlanishini to'liq ta'minlash uchun etarli emas. Har bir bolaning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini inobatga olib, unga mos yondashuvni tanlash uning psixologik rivojlanishiga ijobiy

ta'sir ko'rsatadi. Individual yondashuv, bolaning har bir tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Bu, nafaqat intellektual faollikni oshirish, balki bola hissiyotlarini tushunish va unga zarur yordamni ko'rsatishda ham o'z samarasini beradi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bolalar ta'limida pedagoglarning faolligi va o'qitish metodlarining moslashuvchanligi zarur. Agar bola ta'limda o'zining maxsus ehtiyojlariga mos yondoshuvni topa olsa, uning rivojlanishi to'liq va samarali bo'ladi. Ta'lim tizimida individual yondashuvni qo'llash, bolaning o'zini ifoda etishida va jamiyatga moslashishida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida bolaning hissiy rivojlanishi, uning o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy faolligi oshadi. Shuningdek, bu yondashuvning ta'siri o'quvchilar orasida sog'lom raqobatni va o'zaro hurmatni shakllantirishga ham yordam beradi. Shu boisdan, individual yondashuvni ta'lim jarayoniga to'g'ri tatbiq qilish, bolaning psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tushunish va ularga mos metodlarni ishlab chiqish o'ta muhimdir. Bu nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar va psixologlarning hamkorlikda amalga oshirishi zarur bo'lgan jarayon hisoblanadi.

XULOSA. O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishi ga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchida kuchli faoliyat ehtiyojini uyg'otib, yangi xulq-atvor sifatlarini shakllantirishga yordam bergandagina kutilgan natijalarga erishadi. Ushbu tadqiqot bolalar psixik rivojlanishida individual yondashuvlarning ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam berdi. Tadqiqot davomida, maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim muassasalarida individual yondashuvlarning bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatayotganini ko'rdik. Kelajakda bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar, bolalar rivojlanishida individual yondashuvlarni chuqurroq o'rganishga va ta'lim tizimining har bir bolaga moslashtirilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, bolalar psixik rivojlanishiga yanada samarali ta'sir ko'rsatadi va ularga hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.
2. Akhmedova, M. (2020). Maktabgacha ta'limda individual yondashuvlar: nazariya va amaliyot. Tashkent: Ma'naviyat.
3. Jonson, C. R. (2019). Child Psychology: A Parent's Guide to Cognitive and Emotional Development. New York: Harper Collins.
4. Nadirova, D. (2021). Bolalar psixik rivojlanishida individual yondashuvlar. Journal of Pedagogical Science, 34(2), 45-57.
5. Xodjaeva, S. (2020). O'quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirishning metodik asoslari. Pedagogika va psixologiya, 3(1), 28-33.
6. Ibragimova, M. (2019). Maktabgacha ta'lim muassasalarida individual pedagogik yondashuvni qo'llash. Tashkent: Science Publishing.